

## XALQARO EKSPERTLAR ISHTIROKIDA O'QUV – SEMINAR TASHKIL ETILDI



Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan bugun tashkil etilgan o'quv-seminarga Germaniyaning "Wirtgen Group" kompaniyasi hamda uning O'zbekistondagi rasmiy dileri "YO'LTES" kompaniyasi ekspertlari va qo'mita tarkibidagi korxonatashkilotlar mutaxassislari taklif etildi.

Seminarda xalqaro ekspertlar avtomobil yo'lini sovuq regenerator (resaykling) holatda qayta tiklash jarayoni, W200FvaW220F yo'lfrezalarining imkoniyatlari va "Vogele" kompaniyasining S1800-3 rusumli asfalt yotqizish mashinasi hamda asfaltobeton va tsementobeton qoplamalarni yotqizish texnologiyalari haqida foydali ma'lumotlar berib o'tdi.



O'quv-seminarda ishtirok etgan mahalliy mutaxassislar uchun yo'l-qurilish sohasidagi

yangi innovatsion texnologiyalar haqidagi ushbu ma'lumotlar foydadan holi bo'lmadi, desak mubolag'a emas.



Avtomobil yo'llari qo'mitasi tomonidan xorijiy hamkorlar bilan tashkil etilgan ushbu tadbirdan asosiy maqsad – Xalqaro miqyosda ko'p yillik tajriba va malakaga ega bo'lgan xorijiy kompaniyalarning texnika-texnologiyalarini mamlakatimizda olib borilayotgan yo'l-qurilish sohasiga keng jalb qilish va uni yangi bosqichlarga olib chiqishdir.

**Avtomobil yo'llari qo'mitasi**

**Axborot xizmati**